

Barqaror taraqqiyot maqsadlari va oliy ta'lim: yashil iqtisodiyot yo'nalishida strategiyalar

Ibrohimova Shirmonoy Xusan qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) va yashil iqtisodiyot tushunchasi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Maqolada oliy ta'limning yashil iqtisodiyotga o'tishda tutgan ro'li va ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan strategiyalar batafsil yoritilgan. Yashil iqtisodiyot tamoyillari, energetika, texnologiya va ta'limdagi amaliy yondashuvlarni muhokama qiladi hamda O'zbekiston misolida amalga oshirilayotgan loyihalar, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejashga doir ko'rsatkichlarni keltiradi. Maqola tavsiyalarida oliy ta'lim orqali ekologik ongni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola yashil iqtisodiyot yo'nalishida barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun strategik choralar va metodologiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, Barqaror taraqqiyot maqsadlari, ekologik ta'lim, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik innovatsiyalar, ekologik ong, iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar.

Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) — 2030-yilga qadar barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan xalqaro kun tartibi bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni muvozanatlashni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot esa, bu maqsadlarning ekologik jihatlarini amalga oshirishda markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada oliy ta'limning yashil iqtisodiyot yo'nalishida BTMga erishishdagi strategik roli tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilgan iqtisodiy model. Ushbu yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga asoslangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan yashil iqtisodiyot “Barqaror rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ekologik barqaror va kam uglerodli iqtisodiy tizim” deb ta'riflanadi. Barqaror taraqqiyot maqsadlarining global ahamiyati va iqtisodiyotdagi ro'li beqiyos bo'lib BMT tomonidan belgilangan 17 ta Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (BTM) orasida ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu maqsadlar yirik iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa oliy ta'lim muassasalarini yangi strategiyalar ishlab chiqishga undaydi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy barqarorlik va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali jamiyat

taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Ushbu sohada yetuk mutaxassislar tayyorlash oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

Yashil iqtisodiyot strategiyalarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalar va fan-ta’lim integratsiyasi muhim o‘rin tutadi. Universitetlar ushbu jarayonning markazida turib, ekologik texnologiyalarni ishlab chiqishi va tadbiq etishi lozim. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun oliy ta’limda yangi yo‘nalishlar ochilishi zaruriyati paydo bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq fan va yo‘nalishlar (masalan, ekologik muhandislik, barqaror rivojlanish menejmenti) oliy ta’lim dasturlariga integratsiyalash lozim. Bu esa kelajak avlodni ekologik ongli va barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi kadr sifatida tarbiyalaydi. Oliy ta’lim muassasalari xalqaro tashkilotlar, davlat idoralari va xususiy sektor bilan hamkorlikda yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi strategiyalarni ishlab chiqishi va amaliyotga joriy qilishi kerak.

Bu mavzu dolzarbligi nafaqat ekologik muammolarni hal qilish uchun, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish uchun ham muhimdir. Shu sababli, bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish va strategik qarorlar ishlab chiqish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biridir.

BTM faoliyatining asosiy maqsadlari

1-jadval

BTM maqsadlari	Yashil iqtisodiy o‘zgarishlar
arzon va ekologik toza energiya	Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning kengayishi
Innovatsiyalar va infratuzilmalar	Texnologiyalarni rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash
Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish	Resurslarni tejash va chiqindilarni ishlash

Yashil iqtisodiyotni tashkil etish bir qancha asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Energiya samaradorligi - kam energiya sarflaydigan texnologiyalardan foydalanish.

Qayta tiklanadigan resurslar - quyosh, shamol, va boshqa ekologik xavfsiz energiya manbalariga o‘tish.

Chiqindilarni kamaytirish - qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy qilish.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish - bioxilma-xillikni asrash va ekotizimlarni tiklash.

Ijtimoiy adolat - hamma uchun iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish va tenglikni ta’minlash.

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinishi global va milliy darajada katta afzallik va yutuqlarni ta'minlaydi. Avvalo, atrof-muhitni asrash, havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytiradi. Ijtimoiy rivojlanishga ta'sir etib barqaror va yuqori sifatli ish o'rinlarini yaratadi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan iqtisodiyot xarajatlarni kamaytiradi va xavfsizlikni oshiradi. Uglarod chiqindilarini kamaytirish orqali global isish va iqlim o'zgarishini sekinlashtiradi. Yashil iqtisodiyot nafaqat atrof- muhitga balki iqtisodiyotga ham katta foyda keltirishi mumkin.

Dunyoda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish uchun davlatlar va tashkilotlar o'z strategiyalarni qo'llashmoqda. Bulardan eng ko'p foydalanilyotgan usullar:

- ✓ Energiya sohasida islohotlar: qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalarni ko'paytirish.
- ✓ Uglarod solig'i va subsidiya siyosatini joriy qilish.
- ✓ Texnologik innovatsiyalar - energiya tejamkor qurilmalar va ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratish.
- ✓ Ta'lim va ongli iste'mol - Barqaror taraqqiyot bo'yicha ta'lim dasturlarini rivojlantirish.
- ✓ Aholi va korxonalarda ekologik ongni shakllantirish.
- ✓ Barqaror korxonalariga grantlar ajratish.
- ✓ Ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni moliyalashtirish.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish davlat strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, soha bo'yicha ko'plab o'zgarish va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Islohotlarning asosiy mazmunida qayta tiklanadigan energiya - Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish uchun yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini 25% ga yetkazish maqsad qilingan. Bundan tashqari, samarali suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish harakatlari olib borilmoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish" to'g'risida maxsus qonunlar ishlab chiqilmoqda. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bo'yicha yangi tizimlar joriy etib borilmoqda.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari.

2-jadval

Yo'nalishlar	2020-yil	2024-yil	2030-yil (prognoz)
Qayta tiklanadigan energiya manbalari(%)	10	15	25

Suvni tejash texnologiyalari qamrovi(%)	20	35	60
Chiqindilarni qayta ishlash (%)	10	18	40

Barqaror taraqqiyot maqsadlari va yashil iqtisodiyotning oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyasini yanada samarali qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni kiritish mumkin:

1. Ta'lim tizimida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish. Maxsus ta'lim dasturlari yaratish shu bilan birga ekologik va yashil iqtisodiyot tamoyillariga oid bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini tashkil etish, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslarni joriy qilish orqali sohani rivojlantirish.

2. Ta'lim jarayoniga amaliyotni kiritish. Talabalarni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarida qatnashishga jalb qilish orqali universitet va mahalliy korxonalar hamkorligida ekologik innovatsion texnologiyalarni o'rgatish uchun amaliy laboratoriyalar tashkil qilish.

3. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish. Innovatsiyalarni rag'batlantirish va yashil iqtisodiyot sohasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil qilish. Tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish va xorijiy grantlarni jalb qilish.

4. Oliy ta'lim va xususiy sektor hamkorligini ta'minlash - Davlat va xususiy korxonalar bilan birgalikda ekologik texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish. Universitetda ishlab chiqilgan texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini yaratish.

5. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish - energiya samaradorligini oshirish, qishloq joylarda quyosh panellari va shamol generatorlaridan keng foydalanish. oliy ta'lim muassasalarining o'zida energiya samaradorligi bo'yicha namunaviy dasturlarni amalga oshirish.

6. Qayta ishlash tizimini rivojlantirish - universitetlar hududida chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini yo'lga qo'yish. Talabalar o'rtasida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun tanlovlar tashkil etish.

7. Xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash - Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, jahonning yetakchi universitetlari bilan ekologik ta'lim va yashil iqtisodiyot bo'yicha qo'shma dasturlar tashkil etish. Xalqaro ilmiy konferensiyalar va seminarlarda qatnashishni jadallashtirish.

8. Ekologik ongni rivojlantirish - aholi va talabalar o'rtasida targ'ibot ishlari, ekologik mas'uliyatni oshirish bo'yicha ommaviy ma'lumot

kampaniyalari o'tkazish. Barqaror turmush tarzini targ'ib qiluvchi tadbirlar va ko'rgazmalar tashkil etish kabi usullardan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O'zbekiston nafaqat ekologik muammolarni hal qiladi, balki iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishni ham ta'minlaydi. Innovatsion va ekologik ta'lim dasturlarini joriy qilish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulnara, M., Gulnoza, O., & Dilafrooz, M. (2023). EFFECTIVE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS. *Open Access Repository*, 4(03), 340-348.
2. Takhirovna, M. D. (2020). MEANS OF COMBATING MASS CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
3. Nusratovich, S. K., & Khurshidbek, T. (2023). RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 788-794.
4. Nusratovich, S. K., & Asidaxon, A. (2023). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURIAL ENTITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 51-62.
5. Sabirov, K. (2024). Econometric modeling of development trends in the food industry. *Nordic_Press*, 1(0001).